

ULUG'BEK DAVRIDA FAOLIYAT YURITGAN OLIMLAR

Yangiboyev Abdulaziz O'tkir o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Tarixiy tadqiqotlar Sharq mamlakatlaridagi dastlabki bilim maskanlarizardushtiylik dinining ibodatxonalarida bilimdon ruhoniylar, oqsoqollar yoshi ulug' tajriba va bilimga ega nufuzli a'zolari tomonidan olib borilgan daralar to'g'risidagi arxeologik ma'lumotlar qadimgi Xorazm madaniy yodgorliklarida saqlanib qolgan.*

Kalit so'zlar: *Mirzo Ulug'bek, rasadxona, 1018 yulduz, Ali Qushchi, Jamshid Koshoniy*

Аннотация: *Исторические исследования в древних памятниках культуры Хорезма об уроках, проводимых знающими жрецами, старцами с большим опытом и знаниями в храмах зороастрийской религии, первых местах знаний в странах Востока.*

Ключевые слова: *Мирзо Улугбек, обсерватория, 1018 звезд, Али Кушчи, Джамшид Кошоны*

Annotation: *Historical researches in the ancient Khorezm cultural monuments about lessons conducted by knowledgeable priests, elders with great experience and knowledge in the temples of the Zoroastrian religion, the first places of knowledge in Eastern countries.*

Keywords: *Mirzo Ulugbek, observatory, 1018 stars, Ali Kushchi, Jamshid Koshony*

XV asrda Movarounnahr, Xurosonda va umuman Markaziy Osiyoda, xususan Samarqandda fan va madaniyatning yangidan tug'ilishi Amir Temur va uning nabiralari Muhammad Sulton va Mirzo Ulug'bekning nomi bilan bog'liq. Amir Temur hayotligi davrida saltanatining turli yerlaridan Samarqandga kelgan Mas'ud Taftazoniy, Sayid Sharif Jurjoniy, Salohiddin Muso Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Koshiy va boshqalar Samarqand ilmiy maktabining poydevoriga asos soldilar. «Dorul hikmat» olimlari riyoziyot, ilmi hay'at, handasa, jo'g'rofiya, tarix, ilmu nujum, tibbiyot, musiqa, mantiq, aruz (she'riyat), ilmi hisob, teologiya, hadis, fiqh, adab, ilmi hikmat, ilmi kalom, arab tili kabi fanlarning turli sohalarida asarlar yaratgan va shu fanlar madrasi oliyada o'qitilgan. Mirzo Ulug'bek Samarqandda to'plangan ilmiy kuchlar, mohir muhandislar maslahati bilan mamlakatda, jumladan poytaxt Samarqandda ta'lim tizimi va ilmiy tadqiqotlarning samarali tarzda amalga oshirish maqsadida keng ko'lamli qurilish ishlarini boshlab yubordi. Shunisi borki, bu ishlarni boshlashdan oldin, ta'lim tizimi va ilmiy tadqiqotlar uchun madrasa va madrasa majmualarining maqsadi, vazifasi, joyi, me'morlari hamda har bir inshootning o'sha davrda qo'lga kiritilgan tajribalar va nazariy jihatdan asoslangan bo'lishiga katta e'tibor qaratilgan Mirzo Ulug'bek tomonidan Samarqandda barpo qilingan inshootlar ichida Rasadxona (1424 – 1429) tarixiy-ilmiy ahamiyat kasb etadi. Samarqand astronomlarining mahorati asosiy asbobning juda katta bo'lishi va tuzilishining mukammalligini ta'minladi. Bu esa Quyosh, Oy va boshqa yoritgichlarni katta aniqlikda kuzatish imkonini berdi. Kvadrantning janubiy qismi yer ostida, qolgan qismi shimoliy tomonda yer sathidan 30 m. cha balanda

joylashgan. Asbob aylanasi bir gradus yoy 701,85 mm. va bir minut yoy 11,53 mm. ga to'g'ri keladi. Mirzo Ulug'bek va uning astronomiya maktabi tomonidan yaratilgan ilmiy kashfiyotlar Al Xorazmiyning matematika sohasida qo'lga kiritgan yutuqlarining amaldagi ifodasi bo'ldi desak adashmaymiz. SamDUning jahondagi nufuzli ilmiy va o'quv markazlari orasida alohida mavqega ega bo'lishida uning bag'rida shakllangan ko'plab ilmiy maktablar va muammoviy ilmiy tadqiqotlar laboratoriyalarining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Bular jumlasiga: o'zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligi, falsafa, tarix-arxeologiya, molekulyar optika, yadro va kosmik nurlar fizikasi, differensial tenglamalar va matematik fizika, botanika, zoologiya, biokimyo, organik va analitik kimyo kabi qator ilmiy maktablarini misol sifatida keltirish mumkin. O'zbekiston hududida ta'lim tizimining shakllanishi va rivojlanishi tarixini manbalar asosida tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, O'zbekistondagi oliy ta'lim muassalarini tashkil etilish sanasi Temuriylar davri xususan Ulug'bek madrasasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning bevosita vorisi Samarqand davlat universitetidir. Boshqacha aytganda, Samarqand-Ulug'bek universitetining tamal toshi 1420 yili madrasayi oliyaning ochilish marosimida qo'yilgan. 1994 yilda Mirzo Ulug'bekning 600 yillik tavalludi xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 1994 yil «Ulug'bek yili» deb e'lon qilindi. Alloma yubileyi munosabati bilan Fransiya poytaxti Parij shahrida – YUNESKO qarorgohida bo'lib o'tgan xalqaro forumda ishtirok etgan mamlakatimiz olimlarining ilmiy ma'ruzalari dunyo hamjamiyati e'tiborini tortdi. Mamlakatimizda istiqloq yillarida Ulug'bek ilmiy merosini o'rganish borasida keng ko'lamlilik ishlar amalga oshirilmoqda. Alloma yashagan davr, uning hayoti va faoliyati haqida yangi kitoblar, ilmiy maqolalar, badiiy asarlar yozilmoqda. Mirzo Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi», «Ilmu nujum. Astralogiya» asarlari nashr etildi. Tarixchi olim A.Ahmedovning «O'rta asrlarning buyuk allomasi», «Ulug'bek Muhammad Tarag'ay», «Mirzo Ulug'bek va uning «Tarixi arba ulus» asari haqida», U.Uvatov va F.Karimovning «Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida» kitoblari nashrdan chiqdi. Akademik B.Valixojayevning «Mirzo Ulug'bek davri madrasalari» risolasi o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi. «Ulug'bekning hayoti va ilmiy faoliyati xalqimiz ma'naviyatining poydevoriga qo'yilgan tamal toshlaridan biri bo'lib, yurtimizda bundan necha zamonlar oldin fundamental fanlarni rivojlantirishga qanchalik katta ahamiyat berilganini ko'rsatadi. «Ziji jadidi Ko'ragoniy» deb nomlangan Ulug'bek astronomik jadvali o'rta asrlarda lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropa olimlari orasida keng tarqalgani fikrimizning yaqqol isbotidir», deb ta'kidlaydi davlatimiz rahbari o'zining «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida.

Xulosa: Olamni o'rganish, uning sir-asrorlaridan voqif bo'lish - insonning Yer yuziga kelishdan maqsadini aniqlab berishdek dunyoqarash vazifasini bajarishi bilan muhim hisoblanadi. U insonni cheksiz Koinotning bir zarrasi va milliardlab yillar davom etgan uning evolyutsiyasining mahsuli ekanligini, u yashagan umr Koinotning yoshi oldida atigi bir daqiqa ekanligini, har bir insonning "bir zumlik" hayotga kelishi mo'jizaviy bir holligini va bu "bir zumlik" umrni pala-partish emas, balki buyuk maqsadlarga qaratib yashash



zarurligini, bu ulug' nomga dog' tushirmay yashash lozimligini sezdirishi bilan beqiyos ahamiyat kasb etadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurahmon Abdurahmonov, «Ulug'bek Akademiyasi», T. «Qomuslar bosh tahririyati», 1994-y.
2. B.Ahmedov, «Tarixdan saboqlar», T. «O'qituvchi», 1994-yil.
3. B.Ahmedov, N.Norqulov, M.Hasaniy. «Mirzo Ulug'bek To'rt Uus tarixi», T. «Cho'lpon», 1994-y
4. Abdurahmon Abdurahmonov, «Ulug'bek Akademiyasi», T. «Qomuslar bosh tahririyati», 1994-y,.
5. B.Ahmedov, «Tarixdan saboqlar», T. «O'qituvchi», 1994-yil, B.Ahmedov,